

**“GO‘RO‘G‘LI” TURKUM DOSTONLARINING
TARIXIY ASOSLARI (“XIRMONDALI” DOSTONI MISOLIDA)**

**EPICS OF THE "GOROGLI" SERIES HISTORICAL BASICS
(IN THE EXAMPLE OF THE EPIC "KHIRMONDALI")**

Yo‘ldasheva Zuhra Xasan qizi

Mustaqil tadqiqotchi

Xorazm viloyati, Urganch shahri

ANNATATSIYA

Mazkur maqolada “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlarning tarixiy voqealarga borib taqalishiga oid olimlarning tadqiqotlari xususida so‘z boradi.”Xirmondali” dostoni misolida T.Mirzayev, V.M.Jirmunskiy kabi folklorshunoslarning ilmiy asoslari maqoladan o‘rin olgan.

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится об исследованиях учёных о происхождении эпосов серии «Гёроглы». «На примере эпоса «Хырмондали» в статью включены научные основы фольклористов, таких как Т. Мирзаев, В. М. Жирмунский.

ANNOTATION

This article talks about the research of scientists about the origins of the epics of the "Gorogli" series. "In the example of the epic "Khirmondali", the scientific foundations of folklorists such as T. Mirzayev, V. M. Zhirmunsky are included in the article.

Kalit so‘zlar: Epik an‘ana, To‘maris, Xirmondali, tarixiy motiv, sak episi.

Ключевые слова: Эпическая традиция, Томарис, Хирмондали, исторический мотив, сакский эпос.

Key words: Epic tradition, Tomaris, Khirmondali, historical motive, Sak epic.



“Xirmondali” dostoni Xorazm vohasida faqat o‘zbeklar orasidagina emas, balki boshqa xalqlar orasida ham keng ommalashgan. Mazkur doston yozma va og‘zaki variantlarda Xorazm mintaqasidagi o‘zbek, turkman, qoraqalpoq xalqlari orasida qadimdan kuylanib kelingan. Doston syujeti uch xalq o‘rtasida genetik jihatdan yagona mazmun asosida tarqalgan bo‘lsa-da, har bir xalq unga o‘z milliy ruhini, xususiyatlarini, o‘z dunyoqashini singdirgan, o‘z musiqasiga, o‘z turmush tarziga moslashtirgan.

Doston o‘zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Ularning yaratilishi xalqimizning ma‘naviy-maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axloqiy-estetik qarashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, ishq-muhabbat ruhiga yo‘g‘rilgan holda kuylanishi, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu jihatlar bilan Xorazm dostonlari syujet xarakteri, ijodiy uslubi va kuylanishi jihatidan alohidalik kasb etadi, ularning hajmi nisbatan qisqa. Qisqa bo‘lsa ham har biri bir-birini takrorlanmas va salmoqdorligiga va o‘z badiiy estetik go‘zalligiga ega. Ularning katta ko‘pchiligi “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlar tarkibidan o‘rin egallagan.

Shu paytgacha “Go‘ro‘g‘li” eposining og‘zaki variantlari xususida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, uning XIX asrning boshlaridayoq yozuvga ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxalari folklorshunoslar nazaridan birmuncha chetda qolib keldi. Zotan, bunday qo‘lyozma variantalarni eposning jonli og‘zaki ijod orqali yetib kelgan namunalari bilan qiyoslab tadqiq etish orqali “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining badiiy evolyutsiyasi jarayonini mukammal tahlil qilish imkonini tug‘diradi.

Ma‘lumki, “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarining yozuvga ko‘chirilib, kitobat etilishi XIX asr boshlaridan boshlangan. 1863-yilda Xorazmga kelgan Herman Vamberi mazkur dostonlar haqida dastlabki ma‘lumotlarni beradi. Sharqshunos olim o‘zining “Chig‘atoy tili darsligi” kitobida “Go‘ro‘g‘li” dostonlari haqida qisqacha to‘xtalib, “Xirmondali” dostonini ham tilga olib o‘tadi.[1]

Professor S.Ro‘zimboyevning ko‘rsatishicha, hozirgacha Xorazmda tarqalgan “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarining umumiy soni yigirma to‘rtta bo‘lib, shundan hozirga qadar o‘n sakkiztasi yozib olingan. Boshqa viloyatlarda tarqalgan “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining soni haqida so‘z ketganda baxshilar orasida aytilib yuradigan “Go‘ro‘g‘li” qirq doston” degan naqlnamo gap yuradi.

Ammo professor T.Mirzayev to‘g‘ri qayd etilganidek, bu o‘rinda “qirq” raqami an‘anaviy bo‘lib, u haqiqiy holni ifoda etmaydi. Aslida, o‘zbek elida tarqalgan



“Go‘ro‘g‘li” dostonlarining soni yuzdan oshadi. Hozirgacha folklorshunoslar tomonidan yozib olingan va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivida saqlanayotgan “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining soni oltmishtaga bordi.[2]

Folklorshunos olim V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov o‘zlarining “O‘zbek xalq qahramonlik eposi” (1947) nomli fundamental tadqiqotlarining tarixiy dostonlar tahliliga bag‘ishlangan faslida ayrim doston syujetlarini Gerodotning “Tarix” kitobida keltirilgan To‘maris haqidagi rivoyat bilan qiyosiy tadqiq etishgan. Darhaqiqat, Xorazm dostonchilik maktabiga mansub baxshilar repertuarida qayd etilgan va “Go‘ro‘g‘li turkumi” dostonlari tarkibiga kiruvchi “Xirmondali” “dostonining mazmuni hamda motivlar tarkibi Gerodotning “Tarix” asarida hikoya qilingan To‘maris to‘g‘risidagi rivoyat syujetiga deyarli aynan mos kelishi va yunon tarixchisi ushbu rivoyatni og‘zaki manbalar asosida bayon etganligi massagetlar davridayoq o‘lkamizda ancha rivojlangan epik an‘ana mavjud bo‘lganligiga yorqin dalil bo‘la oladi. [3]

To‘g‘ri, qariyb ikki yarim ming yillik tarixiy taraqqiyot natijasida massagetlar davri epik ijodiyoti bilan XX asr o‘zbek xalq dostonchiligi epik an‘analari o‘rtasida bevosita aloqadorlik saqlanib qolmagan bo‘lsa-da, mazkur dostonning har ikki talqinidagi uyg‘un jihatlar ushbu epik syujetlar tarixiy-genetik jihatdan mushtarak manba, ya‘ni sak-massaget eposiga borib taqalishini ko‘rsatadi.

Xalq dostonlari, xususan “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarining tarixiy asoslari bo‘yicha izlanish olib borgan akademik To‘ra Mirzaev o‘zbek xalq eposi taraqqiyotining ilk davrini “sak eposi” deb tavsiflaydi hamda bu davr miloddan avvalgi VIII – milodiy V asrlarni o‘z ichiga qamrab oladi, deb hisoblaydi [4].

O‘zbek olimi U.Jumanazarov o‘zbek xalq eposining taraqqiyot bosqichlarini tasnif qilar ekan, “qadimgi sak-massagetlar tarixi aks etgan dostonlar”ni alohida qatlam sifatida ajratib tasniflagan. “O‘zbek xalq eposi sirasida massagetlar hayoti bilan bog‘liq qadimiy tarixiy syujetlar deyarli saqlanib qolmagan. Ammo o‘tmishda bu qabilalarning erkin va farovon hayoti, kurash va intilishlarini aks ettirgan juda ko‘p syujetlar bo‘lganligi aniq. Bu syujetlar og‘zaki epik an‘ana orqali bizga qadar etib kelmagan bo‘lsa-da, ayrim syujetlarning izlari saqlanib qolgan.

Atoqli o‘zbek xalq dostonchisi Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan yozib olingan “Xiromon pari” dostonining nasriy bayoni fikrimizning dalili bo‘la oladi”,[5] – deya qadimgi sak-massaget eposi mavjud bo‘lganligini tasdiqlovchi muhim ilmiy farazni



ilgari surgan olim o‘z monografiyasida sak-massagetlar davri tarixiy voqeligini aks ettirgan epos namunasi sifatida Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan yozib olingan “Xiromon pari” dostonini tahlilga tortgan.

Xalqimizning uzoq yillik tarixiga borib taqaladigan "Go‘ro‘g‘li" turkum dostonlari bir millatning emas, balki mushtarak xalqlarning xalq og‘zaki ijodi mahsulidir. Folklorshunoslikning keng qamrovda tadqiqot olib borishida yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy faoliyati, xalq dostonlarining tarixiy manbalarga asoslanganligi borasidagi tadqiqotlari bizga dasturul amal bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chig‘atoy tili darsligi kitobi.H.Vamberi.1867.
2. Go‘ro‘g‘li. O‘zbek xalq dostonlari.T.Mirzayev.2006.
3. O‘zbek xalq qahramonlik eposi.V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov.1947.
4. Doston, uning turlari va tarixiy taraqqiyoti.O‘zbek folklorining epic janrlari.T.Mirzayev.T: Fan.1981.-B.28-29.
5. O‘zbek folklori va tarixiy voqealik.Jumanazarov.U.T:Fan.1991.-B.18.